

QISHLOQ YERLARI TABIIY RESURS SALOHİYATINI GLOBAL MUAMMOLARGA
TA'SIRI (OZIQ-OVQAT SANOATI MISOLIDA)

Tursunpo'latov Farxodjon Xoshimjon o'g'li
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga talabning kuchayishi va shu bilan birga tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan mikroelementlar miqdori talab darajasidan past bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining ham ortishi natijasida kunning dolzarb masalalari bo'lgan vazn ortishi, organizmda vitaminlar yetishmovchiligi, to'yib ovqat yemaslik va hatto o'lim holatlariga olib kelishi kabi muammolar va ularga yechimlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oziq-ovqat muammosi, FAO, VOZ, "suv stressi", qishloq xo'jaligi klasterlari, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, muammoni hal etishdagi yechimlar.

Global muammolar – jamiyat hayotini har tarafdin qamrab olgan, dunyodagi barcha davlatlar, xalqlar va aholi o'rtasida shuningdek, okean, atmosfera va oykumena (inson yashaydigan joy) uchun jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy yo'qotishlarga olib kelayotgan muammolardir. Bugungi kunda global muammolarning bir necha turlari ajratiladi. Ular quyidagilar:

- *Atrof-muhitning ifloslanishi (ozon qatlaminin yemirilishi, issiqxona samarasi, sanoat chiqindilarining yil sayin ortib borishi, ekologik ofatlar);*

- *Iqtisodiy muammolar (rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, tabiiy resurslarni ko'p qazib olish natijasida, zaxiralarining kamayishi va davlatlarning iqtisodiy barqaror rivojlanishi tendensiyalariga ta'siri, tabiiy boyliklarni qayta taqsimlash va ularni tejab – tergab ishlatish);*

- *Energiya muammosi (energiya inqilobi, AES lar va ulardan chiqayotgan chiqindilar, noan'anaviy ya'ni, muqobil energiyadan foydalanish muammosi);*

- *Global tinchlik muammosi (diniy ekstremizm va terrorchilikka qarshi kurash va barcha xalqlar uchun tinchlikni ta'minlash);*

- *Siyosiy muammolar (xalqaro bitim va mojarolar, irqiy ziddiyatlar, terrorizmga qarshi kurashni tinch yo'l bilan hal qilish);*

- *Global oziq-ovqat muammosi (global ochlik, qashshoqlik va savodsizlikka qarshi kurash);*

- *Sog'liqni saqlash, demografik muammolar (aholi sonining ortib borishi (ayrim davlatlarda aholi sonining kamayib borishi) natijasida, oziq-ovqat, yashash muhitining taqchilligi, maishiy chiqindilarning yil sayin ortib borishi).*

- *Ijtimoiy muammolar (inson va tabiat o'rtasida yuzaga kelayotgan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etish)⁸.*

Dunyoda global oziq-ovqat muammosi XX asrning 2-yarmida vujudga kela boshladi. Oziq-ovqat muammosi biror-bir mamlakat yoki butun dunyoda oziq-ovqat mahsulotlarini

⁸ http://geografiya.uz/jahon_iqtisodiy-ijtimoiy_geografiyasi/1019-atrof-muhitning_ifloslanishi.html

ishlab chiqarish, qayta ishlash, iste'molchiga yetkazish va uni iste'mol qilish bilan bog'liq. Bugungi kunda oziq-ovqat muammosi insonlarning turli kasalliklarga chalinishiga, kasallik turlarining ko'payishiga hamda aholining o'limiga sabab bo'lmoqda. FAO (xalqaro oziq-ovqat bilan ta'minlash tashkiloti), VOZ (xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti) va boshqa tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra, insonning bir kunlik oziq-ovqat normasi 2400-2500 kkal dan past bo'lmasligi lozim⁹. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich insonlarning yoshi, jinsi, mehnat faoliyati, tabiiy va ijtimoiy omillar bilan o'zgarishi mumkin. FAOning ma'lumotlariga ko'ra, jahondagi jami aholining 35% i to'yib ovqatlanadi, 15% i zaruriy miqdordagi kaloriyalarni qabul qiladi, lekin ular oqsilni yetarli miqdorda iste'mol qilmaydi. Aholining 20% i oqsilga bo'lgan talabi qondirilmaydi, 30% i ovqatni to'yib yemagan yoki och qolgan. Hozirgi vaqtda ocharchilik 580-650 mln. kishini qamrab olmoqda. 1-1,3 mlrd. kishi esa to'yib ovqat yemayapti. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ocharchilikdan yiliga 13 mln. dan 18 mln. gacha kishi o'lmoqda, shularning 3/4 qismini bolalar tashkil etmoqda. Hozirgi kunda ocharchilikka mahkum bo'lgan jami aholining 200 mln. kishi Afrikaga, 370 mln. kishi Janubiy va Janubiy-sharqiy Osiyoga, 70 mln. kishi Janubiy Amerikaga, 30 mln. kishi Yaqin va O'rta Sharq mintaqalariga to'g'ri kelmoqda. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun, rivojlanayotgan mamlakatlarni iqtisodiy qoloqlikdan chiqarish, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash, qishloq xo'jaligida FTI yutuqlaridan foydalanish kerak. Xususan, insoniyat qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari bo'lgan dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik resurslaridan to'laroq foydalanishi darkor, mazkur muammoning yechimi ikki xil bo'lishi mumkin:

- ekstensiv yo'l - haydaladigan va yaylov yerlar hamda baliq ovlashda foydalaniladigan yerlarni kelgusida kengaytirib borishdan iborat.

- intensiv yo'l - avvalo mavjud yerlarning biologik mahsuldorligini oshirish hamda qishloq xo'jaligiga zamonaviy texnika va texnologiyani qo'llashdan iborat.

Bu yo'lni amalga oshirishda biotexnologiya, o'simliklarning yangi, yuqori hosildor navlaridan va tuproqqa ishlov berishning yangi usullaridan foydalanish, mexanizatsiyalash, kimyolashtirish, shuningdek melioratsiyani yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Barcha mintaqalarda bo'lgani kabi, bizning mintaqada ham oziq-ovqat muammosi bor. Markaziy Osiyo mintaqasida oziq-ovqat muammosi ikki turga bo'linadi: birinchisi, oziq-ovqat miqdori kamligi bo'lsa, ikkinchisi iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat moddalari tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan mikroelementlar va vitaminlar yetishmovchiligidir.

BMTning "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti" bayonotida 2 mln.gacha yaqin o'zbekistonliklar to'yib ovqatlanmaydi, Ayniqsa, A vitamin (bolaning o'sishi, organizmning infeksiyalarga qarshi chidamliligi, teri va shilliq pardalarni normal holatda tutib turuvchi, organizmda moddalar va yog'lar almashinuvini ta'minlaydi) tanqisligi bolalarning 53% ida, katta yoshdagilarning 38% ida kuzatiladi¹⁰ deyilgan.

Markaziy Osiyoda bir necha millionlab kishi to'yib ovqatlanmaydi yoki noto'g'ri ovqatlanadi. Mazkur vaziyat ayniqsa, Tojikistonda keskin darajada tus olgan. Aholining

⁹ <https://hozir.org/global> muammolar va demografik muammolar.html

¹⁰ BMTning "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti" ma'lumotlari

taxminan 1/3 qismi (2,6 million kishi) to'yib ovqatlanmaydi. O'zbekiston, Qirg'iziston va Turkmanistonda esa bu ko'rsatkich mos ravishda – 1,9 million, 400 ming va 300 mingni tashkil etadi¹¹. Fuqarolarning to'yib ovqatlanmasligi ushbu davlatlar uchun og'ir yuk bo'lib tushmoqda — odamlar ko'p kasal bo'lishadi, yetarli darajada ishlashmaydi natijada, mehnat unumdorligi pasayadi. Misol uchun, Tojikistonda 5 yoshgacha bo'lgan taxminan 300 mingga yaqin bolalarda bo'y o'sishi to'xtashi holati kuzatilar ekan — kelajakda bu bolalarda vaziyatni o'nglash imkoni bo'lmaydi.

Yana bir boshqa masala — aholi o'rtasida ortiqcha vazn ortishi masalasi. O'zbekistonda ushbu kasallikdan aholining 14,4 %i aziyat chekadi. Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan birgalikda O'zbekistonning 18-64 yoshdagi aholisi o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari (2023-yil dekabr oyida e'lon qilingan ma'lumotlar)ga ko'ra ularning yarmi og'ir vaznli, 20% i esa semiz ekani aniqlandi. 46% aholining qonida xolesterin miqdori oshgan. Respublika aholisining yarmi og'ir vaznli. Har kuni aholining uchdan ikki qismi (67%) yetarli miqdorda (400 grammdan kam) sabzavot va mevalar iste'mol qiladi. Aholining o'rtacha tuz iste'moli kuniga 14,9 grammni tashkil etadi. Bu Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan miqdordan 3 baravar ko'p (kuniga 5 grammdan oshmasligi lozim) deganidir. O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining qo'shimcha qilishicha, tarkibida tuz, qand, yog' miqdori ko'p bo'lgan taom va shirinliklarni me'yoridan ortiq iste'mol qilish yoshlarda ratsional o'sish va aqliy rivojlanishdan ortda qolish, kattalarda esa yurak qon-tomir, endokrin, xavfli o'sma kabi insonning erta o'limiga olib keluvchi qator kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

BMT ekspertlari fikriga ko'ra, ko'proq pul topa boshlagan va oqibatda yegulikka ko'p pul sarflab, jismoniy faollikni kamaytiradigan odamlar ushbu kasallikka chalinishga moyil ekan. Suv resurslari defitsiti, tuproq buzilishi va tez-tez takrorlanadigan tabiiy ofatlar bilan birgalikda aholi sonining ortib borishi, ekspertlar fikriga ko'ra, ushbu mintaqada qishloq xo'jaligi sohasida ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda. Qishloq xo'jaligida yo'qotishlar hajmini qisqartirish va oziq-ovqat bilan bog'liq vaziyatni yaxshilash va kelajak avlod uchun munosib hayot darajasini ta'minlab berish uchun agrosanoat sektorini muntazam rivojlantirish lozim. Mintaqada yerlar degradatsiyani boshdan kechirib, ekin ekishga va jonivorlarni boqishga yaroqsiz holatga kelmoqda.

Ayni vaqtda Qozog'iston va O'zbekistonning 20% dan ortiq aholisi aynan shunday hududlarda istiqomat qilishadi. Ochlikka va to'yib ovqat yemaslikka umuman olganda, kelajakda mintaqada vaziyat ijtimoiy va tabiat iqlimi o'zgarishi tufayli sezilarli yomonlashishi mumkin. Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisining soni o'sishi XXI asr o'rtasigacha davom etadi, odamlarning ommaviy shaharlarga ko'chib o'tishlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini ko'paytirishni talab etadi. Bu yerda ekin maydonlari va yaylovlar sonini kengaytirish bilan muammoni yechishning imkoni bo'lmaydi, butun boshli qishloq xo'jaligi tuzilmalarini qaytadan qurish talab etiladi. Bugungi kunda Turkmanistonda suv zaxiralarining 94% dan foydalanilmoqda, gidroresurslar tanqisligidan hammadan ko'ra ko'proq aziyat chekadigan O'zbekistonda esa suvdan foydalanish hajmlari

¹¹ <https://sof.uz/uz> ineternet sayti ma'lumotlari

90% ga yaqinlashib qolgan. Ikki yildan so'ng mintaqadagi barcha mamlakatlar yuqori yoki o'ta yuqori darajadagi "suv stressi"ni boshdan kechirishi taxmin qilinmoqda¹². Bunda ehtiyojni qondirish uchun talab etiladigan darajadagi suv tanqisligi yuzaga keladi.

Asrimizning o'rtalariga kelib nimalar ro'y berishini prognoz qilish qiyin, biroq ekologlarning hisob-kitobiga ko'ra, global isish Markaziy Osiyodagi daryolar suv sathining 40% ga tushishiga olib keladi. Markaziy Osiyo mamlakatlari hukumatlari infratuzilmani yaxshilash, qishloq xo'jaligi negizida iqtisodiy klasterlari yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq tumanlari iqtisodiyotini diversifikatsiyalash orqali rivojlantirishga harakat qilmoqdalar. O'zbekistonda qishloq xo'jaligida klasterlarni joriy etish 2018-yilda qabul qilindi. Qishloq xo'jaligiga klasterlarni joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining har xil turlarini qayta ishlash va logistika markazlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus qaror va farmonlari bilan mamlakat bo'ylab paxta, ipakchilik, meva-sabzavot, go'sht va baliq ishlab chiqarish va qayta ishlash uchun klasterlar tashkil etildi. Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish va qo'shimcha qiymatli raqobatbardosh zanjirlarni rivojlantirish mintaqa mamlakatlarining rivojlanish strategiyalarida ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki singari yirik moliyaviy institutlar Markaziy Osiyo mamlakatlarining qishloq xo'jaligini va raqobatbardosh agrosanoat zanjirlarini rivojlantirish bo'yicha tashabbuslarni qo'llab quvvatlamoqda. Mazkur yilda Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar tomonidan ilgari surilgan "Bir makon, bir yo'l" loyihasida ham tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, savdo va investitsiya sohalarida qulay imkoniyatlar yaratish, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, turizm, ta'lim, madaniyat sohalarida hamkorlik salohiyatini oshirish ilgari surilgan.

Mamlakatda aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi oziq-ovqat mahsulotlariga talabning yanada oshishiga olib keladi. Shunday ekan, O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash, bozorni sifatli, xavfsiz va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, aholining xarid imkoniyatlarini mustahkamlash, tashqi iqtisodiy aloqalarni liberallashtirish va sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlarini import qiluvchi xo'jalik sub'ektlariga bojxona, soliq va boshqa imtiyozlar berish, agrar komplekslarni rivojlantirish, oziq-ovqat tovarlari narxlarini pasaytirish va barqarorlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda yuzaga keladigan kamchiliklarni bartaraf etish, oziq-ovqat tovarlarini eksport va import qiluvchi mahalliy va chet ellik investorlar va xorijiy hamkorlarni qulay sharoitlar yaratish sohadagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bunday muammolarni hal etish uchun quyidagi sifatlarga e'tibor qaratish zarur:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarida kimyoviy pestitsidlardan kamroq foydalanish;
- ichki va tashqi bozor uchun sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash jarayonida zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish;

¹² <https://sof.uz/uz> ineternet sayti ma'lumotlari

• yetarli tajriba va malakalarni hosil qilish, sohadagi innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish;

• kadrlar tayyorlash va ularning malakasini muntazam oshirib borish hamda qishloq xo'jaligiga aloqador bo'lgan agroklastlar va texnoparklarni shakllantirish;

• suv, energiya tejamkorligini yo'lga qo'yish;

• gidroponika usulida mahsulot yetishtirishni yanada keng yo'lga qo'yish;

• qishloq xo'jaligida FTI yutuqlaridan samarali foydalanish;

• avtomatlashtirilgan va intellektual texnologiyalarni sohaga tezroq jalb etish;

• jahon tajribasini doimiy o'rganish va chet ellik hamkorlar bilan muntazam aloqa qilib, sohaga yangi innovatsion g'oyalarni keng jalb qilish;

• qishloq xo'jaligida resurs tejamkor dala tajribalari va laboratoriya sinovlarini yo'lga qo'yishni ommalashtirish;

• an'anaviy va noan'anaviy ekin turlarini yaratishni yo'lga qo'yish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalarni bosqichma-bosqich hal etish oziq-ovqat mahsulotlari va ularning xavfsizligiga bo'lgan talabning sekin asta qondirilishiga olib keladi. Shuningdek, bog'dorchilik, energiya samaradorligi va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirish uchun xalqaro moliyaviy donorlar mablag'lari ham jalb qilinishi rejalashtirilgan.

Aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlash mamlakat oziq-ovqat xavfsizligining bir qismi hisoblanadi. Aholini asosiy oziq-ovqat turlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, oziq-ovqat narxi va sifati uyg'unligini ta'minlash va oziq-ovqat xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zME. 1-jild. Toshkent, 2000-yil.
2. [https://International Food Policy Research Institute \(IFPRI\)-2019](https://International Food Policy Research Institute (IFPRI)-2019).
3. "Global Food Policy Report-2019" ma'lumotlari.
4. BMTning "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti" ma'lumotlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi".

Internet saytlari:

6. www.google.com in internet sayti ma'lumotlari.
7. www.yandex.ru in internet sayti ma'lumotlari.
8. <https://sof.uz/uz> in internet sayti ma'lumotlari.